MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA KO‘RGAZMALILIK TAMOYILINING O‘RNI.

Muallif: Toxirova Matluba Dilmurod qizi
Kimyo Xalqaro Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Kirish. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Tabiiy fanlarda umumiy nazariyani o‘zi va kitobdagi odatiy topshiriqlar bolalarni zeriktirishi va fanlarga qiziqishining so‘nishi tobora odatiy holga aylanib bormoqda.Shu sababli, dars jarayoniga didaktik o'yinlarni olib kirish zamon talabidir.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf (masalan, 2-sinf) tabiiy fanlar darslarida "Zukko ayg‘oqchi" yoki "tabiat qo‘riqchilari" kabi o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning og'zaki va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar davomida o'quvchi nafaqat tabiat bilan tanishadi, balki mantiqiy fikrlaydi, jamoada ishlashni o'rganadi shu bilan birga tabiatni asrashni o‘rganadi. Masalan, o‘quv binosi atrofidagi yashil tabiatdan darslikdagi mavzuga o‘zaro bog‘lab tushuntirilganda amaliy ko‘nikmalar rivojlanib boradi va vizual ko‘rgazmalilik BKMsi ham shakllanib boradi. Bu esa o‘quvchilarda tasavvurning kengayishi va nazariyani amaliyot bilan bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi, o'quvchilar mavzuni zerikmasdan turib tez va oson o'zlashtiradilar.

“Zukko ayg‘oqchi” didaktik o‘yinida bolalar asosan ikki guruhga bo‘linadilar va mavzuga oid predmetlarni tabiat qo‘ynidan topishga harakat qiladilar.Agar, unday predmet yo‘q bo‘lsa o‘qituvchi bu predmetlarni maxsus qog‘ozlarga chiqartirib o‘zi yashirib qo‘yadi va shu tariqa o‘yin davom etadi.O‘yin darsning uchdan bir qismiga to‘g‘ri keladi.O‘quvchilar o‘rtasida nizo kelib chiqmasligi uchun guruhlar o‘yinning boshidan oxirigacha o‘qituvchi nazorati ostida bo‘ladi.O‘yin yakunlangach o‘qituvchi g‘olib bo‘lgan jamoani rag‘batlantiradi va o‘yin yakunlanadi.Mag‘lub bo‘lgan jamoani ruhiy ahvolini zo‘riqtirmasdan ularga motivatsion maxsus xatlar

taqdim etiladi.Bunday xatlarni ichida turli xil motivatsion iboralar yozilgan bo‘ladi.Shunday qilib, hech bir jamoa norozi kayfiyatda bo‘lmaydi va dars ham nodatiy tarzda kechadi.Bundan tashqari bunday o‘yinni nafaqat bino bog‘ida, balki, turli xil tabiat qo‘ynilarida ham o‘tkazish mumkin. Bu esa yosh avlodlarni ta’limiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi hamda jismoniy sog‘liqlarini normallashtiradi.Chunki bino ichidan ko‘ra tabiat bag‘rida kislorod va toza havo yetarlicha bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tabiiy fan darslarida didaktik o'yinlarni tizimli qo'llash ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilarning darsdagi faolligini ta'minlaydi va fanga bo'lgan ijobiy motivatsiyasini kuchaytiradi.

Adabiyotlar:

https://share.google/e7pxyRIcrxIS8RvVa
5bac9c95eef53.pdf